

**BADIIY MATNDA FONETIK DIALEKTIZM VA UNING BA'ZI
USLUBIY XUSUSIYATLARI
(Shukur Xolmirzayev hikoyalari misolida)**

Abdullayeva Ozoda Bobir qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Filologiya fakulteti 4-kurs talabasi

abdullayevaozoda787@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada dialektizmlar va ularning turlari, badiiy asarda shevaga xos soʻzlarning qoʻllanilish sabablari, noadabiy qatlam soʻzlarining funksional-semantik xususiyatlari, fonetik dialektizmlar va fonetik hodisalarning aloqasi, geoagrafik joylashuvning soʻzlashuv nutqiga taʼsiri kabi masalalar yozuvchi Shukur Xolmirzayev hikoyalari misolida tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: dialektizm, sheva, fonetik dialektizm, leksik dialektizm, morfologik dialektizm, assimilatsiya, dissimilatsiya, apokopa, sinkopa.

АННОТАЦИЯ

В данной статье на примере рассказов писателя Шукура Холмирзаева анализируются такие вопросы, как диалектизмы и их виды, причины употребления диалектных слов в художественном произведении, функционально-семантические особенности слов нелитературного пласта, связь фонетических диалектизмов и фонетических явлений, влияние географического положения на разговорную речь.

Ключевые слова: диалектизм, диалект, фонетический диалектизм, лексический диалектизм, морфологический диалектизм, ассимиляция, диссимиляция, апокопа, синкопа.

ABSTRACT

This article analyzes issues such as dialectisms and their types, the reasons for the use of dialectal words in literary works, the functional-semantic features of non-literary layer words, the connection between phonetic dialectisms and phonetic phenomena, and the influence of geographic location on spoken language, using the stories of the writer Shukur Kholmirzayev as examples.

Keywords: dialectism, dialect, phonetic dialectism, lexical dialectism, morphological dialectism, assimilation, dissimilation, apocope, syncope.

KIRISH

Badiiy asarlarda mahalliy koloritni berish va qahramonning holatini yanada aniqroq ko'rsatish uchun dialektizmlardan keng foydalaniladi. Dialektizm atamasiga turlicha izohlar berilgan. Xususan, "O'zbek dialektologiyasi" darsligi muallifi Samixon Ashirboyev "Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarning aks etishi"¹ ga dialektizm deb qaragan.

Ayrim sabablarga ko'ra va ma'lum maqsadni ko'zlab, adabiy til tarkibida qo'llaniladigan, unda ma'lum bir vazifani bajaradigan alohida biror dialekt va mahalliy shevalarning fonetik, morfologik, leksik va sintaktik xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan so'z va so'z birikmalari dialektizmlardir.²

U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida dialektizmlarga ishlatilish hududiga ko'ra chegaralangan til hodisalari sifatida qaraladi. Dialektizm umumtilga emas, balki shu umumtilning mahalliy ko'rinishlari bo'lgan dialektlarga xos hodisalardir. Shunga ko'ra bular, odatda, biror dialektning vakillari nutqida ishlatilib, ko'pincha boshqa dialektning vakillariga, shuningdek, adabiy tilga ham xos bo'lmaydi.³

Dialektizm grekcha so'z bo'lib, shevaga xos so'z demakdir. Bunday so'zlar fonetik va semantik jihatdan adabiy tildagi so'zlardan keskin farq qiladi va badiiy matnda ko'proq qahramonlar xarakterini ochib berish maqsadida qo'llanadi.⁴

Dialektizmlar qaysi yarusni aks ettirishiga qarab turlarga ajraladi. Samixon Ashirboyev uni *fonetik, leksik va morfologik dialektizm* kabi turlarga ajratadi. Shavkat Rahmatullayev esa "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida quyidagicha tasniflaydi: 1. *Lug'aviy dialektizm: a) leksik dialektizm (dialektizm-leksema, dialektizm-semema) b) frazeologik dialektizm* 2. *Grammatik dialektizm* 3. *Fonetik dialektizm*. Ma'rufjon Yo'ldoshev "Badiiy matnning lisoniy tahlili" qo'llanmasida dialektizmlarni *fonetik, leksik (sof leksik, etnografik, semantik dialektizmlar) va grammatik (morfologik va sintaktik) dialektizmlarga* bo'ladi.

Fonetik dialektizm badiiy asarda muayyan shevaga oid fonetik xususiyatlarning, tovush talaffuzi va tovush o'zgarishi bilan bog'liq hodisalarning yuzaga kelishidir. Fonetik dialektizmlar, asosan, tovush tushishi, tovush ortishi, tovush o'zgarishi, tovush ikkilanishi shaklida namoyon bo'ladi. Ulardagi emotsionallik leksik dialektizmlarga nisbatan kam bo'lsa-da, lekin mahalliy koloritni berishda, o'sha davr yoki muhitni o'quvchi ko'z o'ngida gavdalandirishda birdek xizmat qiladi.

¹ Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. Darslik. – Toshkent: "Navro'z" nashriyoti, 2016. -B.76

² Файзуллаев Б. Дialektizmlar va ularning adabiyotdagi ўрни. "Ўзбек тили ва адабиёти" журналі, 1977. 4-сон - Б. 35

³ Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: Ўзбекистон, 1992. -Б.144

⁴ Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. -Тошкент: Ўқитувчи, 1995. -Б. 16

Umuman olganda, dialektizmlarning turli xil ko‘rinishlari badiiy asarlar tilida tez-tez uchraydi. Tadqiqotchilarning fikricha, atoqli o‘zbek yozuvchilari va shoirlaridan Oybek, A.Qahhor, G‘.G‘ulom, Sh.Rashidov, A.Muxtor, P.Qodirov, Tog‘ay Murod, Sh.Xolmirzayev, U.Azim va boshqalar o‘z asarlarida xalqning jonli so‘zlashuv nutqiga – dialektizmlarga tez-tez murojaat qilib turadilar. Shundan Shukur Xolmirzayevning ayrim hikoyalari misolida fonetik dialektizmlarning qo‘llanish xususiyatlarini ko‘rib o‘tamiz.

Shukur Xolmirzayev Surxon vohasidan bo‘lganligi uchun, asarlarida ham shu hudud elementlari sezilib turadi. O‘zbek tili Surxondaryo shevalarini tadqiq etgan olim Saidmuso Rahimov vohagi o‘zbek shevalarini quyidagicha tasnif qiladi:

1. J-lovchi o‘zbek shevalari (qipchoq lahjasiga xos shevalar).
2. Y-lovchi o‘zbek shevalari (qorluq lahjasiga xos)
3. Ikki tilde so‘zlashuvchi shevalar.

S. Rahimov Surxondaryo shevalarida contrast juft unlilarning mavjudligi va buning natijasida singarmonizmning saqlanib qolganligini ham ta’kidlaydi. Singarmonizm, tovush o‘zgarish hodisalari, fonetik hodisalarning Shukur Xolmirzayev hikoyalari ham uchrashini, yozuvchining bu bilan Surxon vohasi koloritini to‘liq ochib berolganini ko‘rishimiz mumkin.

Tovush almashish hodisalari natijasida yuzaga kelgan fonetik dialektizmlar:

1. Old qator, o‘rta-keng, lablanmagan “e” unlisining old qator, quyi keng, lablanmagan “a” unlisiga almashishi kuzatiladi:

- *Hali ovchiman, **dang?** – daf’atan pixillab kuldi u va gulxanga o’tin qalay boshladi. [10,12]*

- ***Lakin**, milisa bobo, tipovoydan bizgayam birovini beramiz deyishgandi. [10,67]*

- *Xo’p, **man** bir oz damimni rostlay, - dedi u va tag’in xarsangga o’tirdi. [10,146]*

2. Orqa qator, quyi keng, lablangan “o” unlisining old qator, quyi keng, lablanmagan “a” unlisiga almashish hodisasi uchraydi.

- *He, **dayradan** norman. Bobolarding yurtidan. Cho’pon bo’g’anmiz-da aslida. [10,66]*

- *Tepamda **xuda** bor, yolg’on **gapiralmayman!** [10,67]*

- *Uni ko’tarib hovliga olib kirgan xotiniga **qaynanasi** baqirdi. [10, 101]*

- *Samar kafti bilan **peshanasini** siladi [10, 133]*

- ***Payafzal** qurib tursin [10, 67]*

3. Old qator, quyi keng, lablanmagan “a” unlisining orqa qator, quyi keng, lablangan “o” unlisiga almashishi kuzatiladi:

- E, oyoq **cho‘laq** bo‘g‘ani bilan jurishga yaraymiz, milisa bobo. [10, 67]

- Rais bobo, bizning **moshin** hech qachon padvadit qilganmi?

Shopir-chi? – dedi. [10, 108]

- **Barakallo!** Qani, turdik bo‘lmasam! – rais soqiyga qarab hovuchini ochdi. [10, 108]

4. Old qator, yuqori tor, lablanmagan “i” unlisining old qator, quyi keng, lablanmagan “a” unlisiga almashish hodisasi uchraydi.

- Siz **aynabsiz**, - dedi sekretar [10, 101]

5. Sirg‘aluvchi, jarangsiz, lab-tish “f” undoshining portlovchi, jarangli, lab-lab “b” undoshiga almashishi kuzatiladi:

- **Labzidan** qaytgan nomard! [10, 246]

6. Sirg‘aluvchi, jarangli, chuqur til orqa “g” fonemasining sirg‘aluvchi, jarangli, lab-lab “v” fonemasiga o‘zgaradi:

- Otang uydami?

- **Tovga** ketgan, - dedi u [10, 40].

7. Portlovchi, jarangli, lab-lab “b” undoshi portlovchi, jarangli, lab-lab “m” tovushiga almashadi:

- Ko‘rinib **turiptiki**, bu bulut to‘kkan yomg‘ir **ancha-muncha** mahalda tinmaydi. [10, 13]

- **Muni** qarang, uni urmoqchi bo‘lib, shu xivchinni ko‘taribman. Taqqa to‘xtadi u ham. [10, 23]

- **Mundoq** qaraganda, men o‘z niyatimga yetgan edim: Zokir O‘rinovich ham menga boshqacha ko‘z bilan qaraydigan, nomimni aytib, qo‘limni tutib so‘rashadigan bo‘lib qoldilar. [10, 26]

- Nimaga uyingiz **munday** xarob? [10, 66]

- Qani? Shumi? Viy, **muncha** chuqur! - dedi [10, 160]

8. Til oldi-tanglay, qorishiq portlovchi (affrikata), jarangli, shovqinli “j” undoshining til o‘rta, sirg‘aluvchi, sonor undoshi (og‘iz sonanti) “y” ga almashishi mavjud:

- Ha, erta-mertan tushib ketgan edi, **maylis** bor ekan.

9. Portlovchi, jarangli, lab-lab “b” undoshi lab-lab, sirg‘aluvchi, jarangli, shovqinli undosh “v” ga almashadi:

- So‘ng eshikning boshqa **tavaqasini** ham ochib qo‘yib, uyga kirdi. [10, 71]

10. So‘z boshida lab-tish, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh “f” ning lab-lab, portlovchi, jarangsiz, shovqinli undosh “p” ga almashishi uchraydi:

- Axir, mening buvim **Parg'onadan** bo'lganlar, buvam Qashqardan qaytyotib, opqochib kelganlar. [10, 129]

11. So'z o'rtasida "b" tovushining jarangsiz jufti "p" tovushiga, "d" tovushining jarangsiz jufti "t" tovushiga almashishi (jarangsizlashuvi) kuzatiladi:

- Soat necha **bo'pti**, o'rtoq muallim? [10, 21]

- Jinni bo'ldingmi? Desalar **deptilar**-da. [10, 28]

- Engashib **turipti**. [10, 44]

- Shu odamdan uchinchi jahon urushi qanday bo'ladi, deb **so'rashipti**. [10, 112]

12. Sayoz til orqa, portlovchi, jarangli, shovqinli undosh "g" ning til o'rta, sirg'aluvchi, sonor undoshi (og'iz sonanti) "y" ga almashishi mavjud:

- Ey, men sizga aytsam, milisa bobo, bu direktorimiz ko'p qoruvli bola chiqdi. Ko'z **tiymasin**, bo'lali bola! [10, 67]

Tovush tushish hodisalari natijasida yuzaga kelgan fonetik dialektizmlar:

1. Hikoyada "qayer" so'zi qisqargan shaklda "qay" tarzida qo'llanilgan:

- **Qaydan** bilay. [10, 12]

2. Asosi -l undoshi bilan tugagan so'zlarga ravishdosh -ib shakli qo'shilganda, asosdagi -l tovushining tushishiva ikkilamchi cho'ziqlikning yuzaga kelishi kuzatiladi: qolib = qo:p, olib = o:b, kelib = ke:p, bo'lib = bo':p

- Toshdek qotib **qopman**. [10, 17]

- Otni **obkeldingmi**? [10, 20]

- **Kep** qoladi, - dedim men. [10, 42]

- Katta **bo'p qopsiz**-da, a? Zamnachalnik **bo'psiz**-da? Tuzuk, tuzuk... [10, 64]

3. Yetakchi va ko'makchi fe'l qismlarining qo'shilishi natijasida yetakchi qismdagi oxirgi tovush va ko'makchi fe'lning birinchi bo'g'ini tushib qoladi, so'z spirantizatsiya hodisasiga uchrab, ikki unli orasidagi portlovchi tovush sirg'aluvchi undoshga o'tadi: jo'nab yubordi = jo'navordi

- Bu kun Qismatulla choysiz **jo'navordi** ishga. [10, 32]

4. Qo'shma fe'l qismlarining qo'shib talaffus qilinishi natijasida so'z o'rtasidagi ayrim tovushlarning tushib qolishi uchraydi: olib borib = ob borib = oborib

- U yerda hech gap yo'q, **oborib** ko'rsataman xohlasangiz. [10, 67]

Tovush orttirilishi hodisasi natijasida yuzaga kelgan fonetik dialektizmlar:

1. So'z oxirida **m** tovushi orttiriladi:

- Men **esam**, eshagimning kalta yolidan ushlab, uyoq-buyoqqa qarab turaverdim [10, 34].

2. Chiqish kelishigi qo'shimchasidan avval **t** tovushi orttiriladi:

- *Otalarimiz bir-biri bilan **eskitdan** oshna* [10, 247].

Fonetik qonuniyatlar natijasida yuzaga kelgan fonetik dialektizmlar:

1. **Assimilyatsiya.** Nutq tovushlari qator kelganda ba'zan bir-biriga ta'sir qilib, biri ikkinchisini o'ziga moslashtiradi. Nutqdagi bunday hodisa assimilyatsiya deyiladi. Assimilyatsiya ikki xil bo'ladi: progressiv assimilyatsiya va regressiv assimilyatsiya. Agar oldingi tovush keyingi tovushni o'ziga o'xshatsa, moslashtirsa, progressiv assimilyatsiya yuz beradi. Hikoyalarda quyidagilarni ko'rishimiz mumkin: *ket+di=ketti, ayt+di=aytti, ot+dan=ottan, vaqt+dan=vaqttan kabi*. Keyingi tovush oldingi tovushga ta'sir qilib, uni o'ziga o'xshatsa, moslashtirsa, regressiv assimilyatsiya yuz beradi, buni quyidagi so'zlarda uchramiz: *yigit+cha=yigichcha, yoz+sin=yossin, tuz+siz=tussin*.

2. **Dissimilatsiya** – so'z tarkibidagi bir xil (yoki o'xshash) tovushlardan birining boshqa tovushga ko'chishi:

- *Gapiravering, ishim **zaril*** [10, 95]

- *Oyoq-qo'lini yozib, ko'zlarini yumib, iyagini ko'tarib bog'lab qo'yadigan **bironta** odam bo'lmaganidan tirishib, kulala bo'lib qoladi-da.* [10, 103]

Progressiv, distant dissimilatsiya uchraydi:

- ***So'pi** azon aytadigan mezananing buzilganida men kelinchak edim.* [10, 98]

3. Sinkopa – so'z o'rtasidagi tovushning tushib qolishi:

- *Sandal ham sovib **qog'an**.* [10, 66]

- *He, dayradan norman. Bobolarding yurtidan. Cho'pon **bo'g'anmiz**-da aslida.* [10, 66]

- *O'zlarining lakin uchastka **sog'anini** bilmayman. Tepamda xuda bor, yolg'on gapiralmayman!* [10, 67]

- *U eshitsa, albatta, yig'laydi, **bo'masam-chi?!*** [10, 103]

- *Xo'p, **op kemasangiz, op kemang**, - dedi. – Qani, tamada, aroqdan quyig bo'lmasam!* [10, 107]

4. Apokopa — so'z oxiridagi tovushning yoki qo'shma so'z komponentining tushirib qoldirilishi:

- ***Ke, ke** deyapman!* [10, 176]

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Shukur Xolmirzayev hikoyalarida fonetik dialektizmlardan unumli foydalanilgan. Kuzatish va tahlillar natijasida shuni bildikki, yozuvchi hikoyalarida tovush orttirilish hodisasi tovush almashishi va tovush tushishiga nisbatan kam uchraydi. Bu, albatta, asar qahramonlarining yashash manzili bilan bevosita bog'liq. Tovush orttirilish hodisasining kam uchrashi Surxon

vohasining o‘ziga xos xarakterli jihatlaridan biridir. Hikoya qahramonlari nutqidan ularning tilida singarmonizm hodisasi ham saqlanib qolganligini bilish mumkin (*qaynanasi, gapiralmayman*).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. Darslik. – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 2016. -136 b.
2. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992. - 399 б.
3. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. -Тошкент: Ўқитувчи, 1995. - 87 б.
4. Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Дарслик. - Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1978. -232 б.
5. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili: metodik qo‘llanma. -Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. -112 b.
6. Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетика, лексика). - Тошкент: “Фан” нашриёти, 1985. -96 б.
7. Tojiyeva G. Shukur Xolmirzayev hikoyalarining lingvopoetik tahlili. Diss... - Termiz, 2023. -63 b.
8. Islomova E. Shukur Xolmirzayev asarlarida qo‘llanilgan dialektizmlar tahlili. “JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI VOLUME 1, ISSUE 4, 2023, JULY.
9. Файзуллаев Б. Диалектизмлар ва уларнинг адабиётдаги ўрни. "Ўзбек тили ва адабиёти" журналы, 1977. 4-сон -Б. 35
10. Холмирзаев Ш. Танланган асарлар: III жилдлик. I жилд: Ҳикоялар. - Тошкент: Шарқ, 2003. -448 б.